

## YUQUMLI KASALLIKLAR YA'NI “O’RVI” NI TALABALAR ORASIDA UCHRASH KO’RSATGICHI

Tursimuratova Sarbinaz Eshmuratovna  
Qodirberganova Marvarid Azamatovna  
Qoraqalpog’iston tibbiyot instituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15669369>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada yuqumli kasalliklar bo'yicha O'RVI ya'ni Gripp kasalligini talabalar o'rtasida uchrash holatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida gripp va O'RVI belgilari ya'ni simptomlari, ularning tarqalish omillari, jinsga bog'liqligi kelib chiqish sabablari va oldini olish choralari tahlil qilindi. Talabalar o'rtasida kasallanish holatlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, infeksiyaning yuqish yo'llari va xavf omillari aniqlandi. Ishda profilaktik choralar, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va emlashning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari yuqumli kasalliklarni qaysi jins vakillarida ko'proq uchrashi, emlashning inson hayotidagi roli haqida ko'nikmalar, taklif va tafsiyalar ishlab chiqilgan. Bu esa sog'lom turmush tarzini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Infeksiyon kasalliklar, O'RVI, gripp, kasallikning talabalar orasida uchrashi va tarqalishi.

**Abstract:** This scientific article studies the incidence of acute respiratory viral infections (ARVI), particularly influenza, among students. During the research, symptoms of influenza and ARVI, their modes of transmission, gender-related patterns, causes, and preventive measures were analyzed. The occurrence of these illnesses among students was examined using statistical data, and the transmission routes and risk factors of the infection were identified. The study highlights the importance of preventive measures, adherence to sanitary and hygienic rules, and vaccination. Based on the findings, sug gestions and recommendations were developed regarding which gender is more susceptible to infectious diseases and the role of vaccination in human life. This contributes significantly to promoting a healthy lifestyle.

**Key words:** The occurrence and spread of infectious diseases, acute respiratory viral infections (ARVI) and influenza among students.

**Аннотация.** В данной научной статье изучены случаи острых респираторных вирусных инфекций (ОРВИ), в частности гриппа, среди студентов. В ходе исследования были проанализированы симптомы гриппа и ОРВИ, факторы их распространения, связь с половой принадлежностью, причины возникновения и меры профилактики. Заболеваемость среди студентов была исследована на основе статистических данных, выявлены пути передачи инфекции и факторы риска. В работе освещается важность профилактических мер, соблюдения санитарно-гигиенических правил и вакцинации. По результатам исследования были разработаны предложения и рекомендации по вопросам, представители какого пола чаще болеют инфекционными заболеваниями и какова роль вакцинации в жизни человека. Это имеет важное значение для формирования здорового образа жизни.

**Ключевые слова:** Заболеваемость и распространение инфекционных заболеваний, ОРВИ и гриппа среди студентов.

### Kirish.

Virusli infeksiyalar juda xilma-xil bo'lishi bilan ajralib turadi, chunki infeksiyon kasalliklarni, jumladan latent, ya'ni yashirin holda o'tadigan kasalliklarni

qo'zg'ata oladigan viruslar nihoyatda ko'p. Viruslar ma'lum bir tropik xususiyatiga ega. Chunonchi, bir qancha viruslar yuqori nafas yo'llari infeksiyalarini (o'tkir respirator virusli infeksiyalarini) qo'zg'atsa, boshqalari gepatotrop viruslardir (A, B, C gepatit, deltagepatit viruslari). Faqat nerv sistemasini tanlab zararlantiradigan bir guruh viruslar ham bor (sustlik bilan o'tadigan infeksiyalar, entsefalitlar, quturish, poliomielit va boshqalar).

O'tkir respirator virusli infeksiyalar (O'RVI) ayniqsa yoshi qaytgan kishilar va go'dak bolalar orasida uchraydigan kasallanish va o'lish hollarining asosiy sabablaridan biridir. O'RVIning asosiy qo'zg'atuvchilari A, B, gripp, paragripp viruslari, adenoviruslar, respiratorsinsitial viruslardir, O'RVI orasida gripp, paragripp, respiratorsinsitial va adenovirusli infeksiyalari hammadan ko'ra ko'proq uchraydi.

Gripp (sinonimi — inflyuensa) nafas yo'llari shilliq pardasi zararlanib, umumiy intoksikatsiya hodisalari bilan o'tadigan o'tkir virusli kasallikdir. Epidemiyalar, pandemiyalar ko'rinishida tarqaladi. Sporadik hollari ham uchraydi. Gripp keng tarqalishi odamlarning shu kasallik qo'zgatuvchisiga yuqori darajada beriluvchanligi, kasallikning havo-tomchi yo'li bilan o'tib, infeksiya yuqib turishi, hosil bo'ladigan immunitetning uzoq cho'zilmasligi va virusning o'zgaruvchan bo'lishiga bog'liqdir [3.285].

Kasallikni yuqtiradigan manba bemor kishidir, bemor infeksiyaning inkubatsion davridayoq kasallik qo'zg'atuvchilarini nafas yo'llari orqali tashqariga chiqarib olib turishi mumkin. Virus bemor odam gaplashganida, yo'talgan va aksa urganida so'laklari, shilimshiqlari, balg'am zarralari bilan birga tashqariga chiqib turadi. Mana shu tomchi yoki zarralar lahza o'tmasdan qurib, havoda uzoq saqlanib tura oladigan aerezollarga aylanadi. Gripp virusi qurib qolgan va cho'kib tushgan aerezollarda 5 haftagacha uy changida, 2 haftagacha o'rin va ko'rpalarda saqlanib turishi mumkin. Mana shu narsa kasallikning chang aerezollari, ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar, sochiq va boshqalar orqali yuqishiga yo'l ochadi [3.286].

**Tadqiqot materiali va usullari.** Tadqiqot ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutining 2-kurs talabalari o'rtasida *anketa – so'rovnoma* ko'rinishida olib borildi. Bunda talabalarning roziligini olgan holda fikr –mulohazalari yig'ildi va bu tadqiqot 18-23 yoshlilar oralig'idagi 90 nafar talaba o'rtasida o'tkazildi. Anketa so'rovnoma talabalar yil davomida necha marta O'RVI bilan kasallanganligi, bunga qarshi davolanish choralarini qay tarzda qo'llaganligi, kasallanishga nimalar sabab bo'lishini, ularda kasallik qancha vaqt

davom etgani, emlangan yoki emlanmagani hamda ularni jinsiga qarab qancha foiz bo'lgani to'g'risida izlanishlar olib borildi.

**Natijalar va ularning muhokamasi.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki so'rovnoma o'tkazilgan 90 nafar talabalning birortasi ham O'RVI ga qarshi emlanmaganligi aniqlandi. O'RVI ga qarshi kurashda asosiy omillardan biri bu inson immunitetidir. Tirik organizmda viruslarga qarshi immunitet hosil qilish uchun albatta emlash amalga oshirish darkor. *Emlash* deb o'ldirilgan yoki kuchsizlangan yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarining hamda ularning zararsizlantirilgan toksinlarini sun'iy ravishda inson organizmiga kiritilishiga aytiladi [2]. So'rovnoma o'tkazilgan 90 nafar talabanning 48 nafari ya'ni 53.3% ini qizlar, 42 nafari 46.7% ini o'gil bolalar tashkil etadi. 90 nafar talabanning 80 nafari O'RVI bilan kasallangani aniqlandi. Bulardan 45 nafari qizlar, 35 nafari esa o'gil bolalar tashkil etadi. Bu foiz ko'rsatkichlarda 56.25% ni va 43.75% ni tashkil etadi ko'rsatkichlar juda yuqori. 90 nafar talabadan atigi 10 nafari O'RVI bilan og'rimagan, bulardan 3 nafari qizlar, 7 nafari o'gil bolalar. Statistik ma'lumotlarga qaraganda ko'pchilik shifokorga murojat qilmasligi aniqlandi, so'rovnoma o'tkazilgan 90 nafar talabadan faqatgina 6 nafari O'RVI bo'yicha shifokor nazorati ostida davolangan. Qolgan talabalar esa o'z bilganicha dori qabul qilishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, talabalarga O'RVI ni oldini olish va davo choralarini ko'rish bo'yicha bilimga ega bo'lishi zarur. Bu so'rovnoma davomida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'RVI bilan og'rigan 80 nafar talabanning 36 nafari shu yil mobaynida 1 marta, qolgan 44 nafari esa 2-3 marta ba'zilar 4 martadan ortiq kasallanganligi aniqlandi. Qizlar orasida 53.3%, o'gil bolalar orasida esa 57,14% i 2 martadan ko'p kasallikka chalingan. Qizlar va o'gil bolalar o'rtasida kasallanish ko'rsatkichi deyarli bir xil. Bu esa talabalarning o'qish samaradorligining pasayishiga, dars qoldirish holatlariga va umumiy salomatlikning yomonlashuviga olib keladi. Buning sababi viruslarning tanaga havo orqali kirishi, immunitetning pasayishi, tananing gipotermiyasi, o'zaro muloqat hamda talabalar oxirigacha to'liq davolanmaganliklaridir [1]. Ko'pchilik talabalar o'z sog'ligi to'g'risida qayg'urishmaydi, to'g'ri kun tartibi va to'g'ri ovqatlanishni yolg'a qo'yish ular orasida kasallanishni kamaytirishiga yordam beradi.

**Xulosa.** Olingan natijalarning tahlillari asosida ta'kidlashimiz joizki, aholining turli qatlamlari hamda talabalar orasida o'z vaqida davolanish va emlanishni hamda O'RVI ga qarshi profilaktik chora tadbirlarni to'g'ri qo'llay olishni bilishlari, ular orasida kasallanishlar sonining kamayishiga olib keladi. Hozirgi kunda yuqori nafas yo'llari infeksiyalari, ayniqsa gripp dolzarb muammolardan biridir.

# “JASLARDIŃ ILIMDE TUTQAN ORNI” atamasidagi XV respublikaliq ilimiy teoriyalik konferenciya

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://med24.uz/shamollash> (O'RVI) kasallik belgilari, diagnostika va profilaktikasi;
2. <https://gov.uz/oz/ssv/news/view/21627/> O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi/mutaxassis:grippga qarshi vaksinalarning ta'sir kuchi.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. M.S.Abdullaxo'jayeva "Patologik anatomiya". 1-qism .- Toshkent, 2024. C.285-286bet.